

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQ MALAKALARINI OSHIRISH USULLARI

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI stajor oqituvchisi.

Tel: 99-955-84-88 abdirazakovanurjamal@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14869084>

Annotatsiya. Boshlang'ich sinfo 'quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirish usullari va insho yozish, yozma ishda xatolarning belgilanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Insho, adabiy-badiiy, mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, bayon, jumla, yozma savodxonlik, uslubiy xato, tinish belgilari, badiiy did.

METHODS FOR IMPROVING THE WRITTEN SPEECH SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. Information is provided on methods for improving the written speech skills of primary school students and on writing essays and identifying errors in written work.

Keywords: Essay, literary and artistic, logical thinking, creative activity, statement, sentence, written literacy, stylistic error, punctuation marks, artistic taste.

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПИСЬМЕННЫХ И УСТНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. Приведена информация о методах совершенствования письменных навыков учащихся начальной школы, а также о том, как писать сочинения и выявлять ошибки в письменных работах.

Ключевые слова: Эссе, литературно-художественное, логическое мышление, творческая деятельность, высказывание, предложение, письменная грамотность, стилистическая ошибка, знаки препинания, художественный вкус.

Insho yozish boshlang'ich ta'lif o'quv faoliyatidagi murakkab masalalardan biridir. Bu ish turi tayyorgarlik talab etadigan va o'quvchini o'z ustida ishlashga o'rgatadigan ijodiy jarayondan iborat. Insho yozish uchun ma'lum bir adabiy-badiiy material bilan tanishib chiqish, uning mohiyatini anglash, ma'lumot va voqeа-hodisalarni mazmunini chuqur o'zlashtirish talab etiladi. Bu borada o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning qayta ifodasi, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy taassurotlari bilan boyitilgan va ongida analiz-sintez qilingan shaklda insho yuzaga keladi.

“Insho” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish; ijod, bayon”¹ degan ma’nolarni bildiradi. Insho boshlang‘ich 1-sinfdan boshlab kichik og‘zaki axborot va hayajonli hikoya qilish tarzida o‘tkaziladi hamda reja asosida aqliy faoliyat yuritishni taqozo etadi. O‘quvchilarda insho yozish orqali ijodiy fikrlash, atrofni kuzatish, voqeа-hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, qiyoslash va shu asosda xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanib boradi. Yozma ishlarning bu turi fikrni tizimli va uzviylikda ifodalashga o‘rgatishi bilan o‘quvchilarni ijodga unyaydi.

“Insho tushunchasining zamirida mavzu va hajmnning cheklanganligi, o‘quvchining ana shu cheklanganlik doirasidan chetga chiqmagan holda qo‘yilgan masalani ochib berishga asoslangan mustaqil faoliyati yotadi. Inshoga material sifatida hayotdagi biror hodisa, badiiy asardagi qandaydir epizod yoki boshqa biror kishining hayotidan lavha, biror joyga, biror tasvirga munosabatni olish mumkin”².

O‘quvchilarni insho yozishga tayyorlash uchun dastlab kichik va qiziqarli matnlarni qayta hikoyalashni, keyinchalik rasmiy bayon, kichik matnlarga asoslangan bayon va insholar rejasini tuzish va matnlar yaratish ishlari izchil tarzda olib borilishi maqsadga muvofiq. Insho o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi ijodiy ishidir. Mazkur jarayonda har ikki subyektning o‘z faoliyat doirasi mavjud bo‘lib, insho uning amaliy mahsulidir. O‘qituvchi rahbarligi o‘quvchi faoliyatiga jiddiy ta’sir qiladi. O‘quvchilar insho yozishda o‘z hayotiy tajribasi, bilimi, kitobxonlik darajasiga tayanadi. O‘qiganlari orasidan insho mavzusiga doir ma’lumotlarni tanlaydi, zarur o‘rinlarda ijodiy foydalanadi. Bu o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki tizimli holda mashqlar orqali tarkib toptiriladi.

O‘quvchilar insho yozishda, masalan, adabiy insholarda, mualliflarning yoki asar haqida boshqalarning fikrlarini takrorlashadi. Buning sababi ular shaxsiy fikrini bildirishga o‘rgatilmaganligi, asarning qaysi o‘rinlari ta’sir qilganini ajrata bilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Insho yozdirishdan avval o‘quvchilardan badiiy asarni qay darajada tushunganliklarini aniqlab olish zarur. Buning uchun suhbatlar o‘tkazish, muhokamalar chog‘ida anglanmay qolgan jihatlarga ijodiy yondashish muhim sanaladi.

Yozma ishda xatolarning belgilanishi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yozma ishlarni tekshirishda yo‘l qo‘yilgan xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yo‘li bilan ko‘rsatiladi va hisobga olinadi. Xatolarni ko‘rsatish uchun:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И ҳарфи. – 221-б. www.ziyouz.com kutubxonasi.

² Nasrullayev E., Hazratqulov M. Insho – o‘quvchi shaxsini shakllantirishning muhim vositasi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2020. – № 9. – B. 15-b.

imlo xatosi ostiga ikki chiziq (–)
ortiqcha yozilgan harf (=)
so‘z xato yozilgan yoki jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo‘lsa (_____)
tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (–)
uslubiy xato ostiga to‘lqinli chiziq (~~~~~) chiziladi.
Daftар hoshiyasiga esa quyidagi shartli belgilar qо‘yiladi:
/ (shtrix) – imlo xatosini bildiradi;
V (ve) – tinish belgisidagi xatoni bildiradi;
W (dubl ve) – uslubiy xatoni bildiradi;
Z (zet) – abzatsni, ba’zan matndagi behuda bo‘sh qoldirilgan yoki noo‘rin band qilingan satrlarni bildiradi³.

Yozma ishni tekshirishda chiroqli jumla, juda o‘rnida keltirilgan dalil ro‘parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qо‘yish bilan tahnin yoki maqtovni; no‘noq, tushunarsiz, noto‘g‘ri jumlalar, noo‘rin dalillar ro‘parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida so‘roq belgisi (?) qо‘yish bilan e’tiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin. Ish tekshirib bo‘linganidan keyin xatolar tasniflanib, ularning soni, masalan, *imloviy* – 2 ta, *ishoraviy* – 3 ta, *uslubiy* – 1 ta kabi ko‘rsatilishi mumkin.

Qo‘shimchalar va ularning turlari yuzasidan qiziqarli topshiriqlar berish orqali.

Masalan: *uycha* – *yangicha*, *ko‘pay* – *ishlay* kabi.

Tinish belgilari – yozma nutq mohiyatini anglash vositasi ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish orqali. Yozma nutqning asosiy shartlaridan biri tinish belgilarining ishlatalish o‘rnini anglashdan iborat bo‘lib, o‘quvchi mustaqil tarzda buni yozma nutqda to‘g‘ri qо‘llay bilishi lozim.

Bugungi kunda o‘quvchilarning yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarni ijobjiy hal etish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchi, avvalo, boshqa o‘quv fanlari o‘qituvchilari bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yishi lozim. Ikkinchidan, o‘quvchida o‘z ona tiliga, qolaversa, har bir so‘zga nisbatan bo‘lgan hurmatni shakllantirish kerak. Uchinchidan, o‘quvchida kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirishga erishish darkor. To‘rtinchidan, ona tili ta’limiga oid qoidalarni o‘quvchiga yodlatish yoki shunchaki o‘qib berish bilan cheklanmasdan, uning mohiyatini bola qalbiga, ongiga muhrray olish shart. Beshinchidan, aytmoqchi bo‘lgan fikrini aniq, ravon va lo‘nda ifoda qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Oltinchidan, har darsda o‘quvchining yoshiga ko‘ra hech bo‘limganda ikkita so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib yozishni mashq qildirish lozim.

³ Зуннунов А., Турдиев Б. Баёнлар тўплами. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 8-6.

Yettinchidan, so‘z birikmalari yoki gaplar tuzdirish va ularni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga erishish maqsadga muvofiq.

Har qanday holda ham o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini badiiy adabiyot vositasida rivojlantirish asar tahlili bilan bog‘liq holdagina amalga oshiriladi. O‘qish savodxonligi darslaridagi o‘quvchining nutqiy faoliyati undagi badiiy-estetik didning takomili uchun ham asosiy omil bo‘ladi. Badiiy-estetik didning takomili esa, o‘z navbatida, nutqiy faoliyat mazmunining mukammallahib borishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday o‘zaro ta’sir natijasida ma’naviy-estetik tarbiya samaradorligi ortadi, o‘quvchilarning badiiy didi takomillashish bilan birga o‘quvchilarning lug‘at zaxiralari ham uzlusiz va muntazam boyib boradi. Lug‘at boyligi va badiiy did qo‘silmasidan o‘quvchidagi ijodiy o‘ziga xoslik yuzaga kela boshlaydi, uning og‘zaki va yozma nutqida badiiylik unsurlari sezilarli tarzda namoyon bo‘la boradi. O‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarni badiiy nutq namunalarini bilan tanishtiradi, shular vositasida ularning og‘zaki va yozma nutqlarining rivoji uchun yo‘l ochadi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish ijtimoiy hamda metodik muammodir. Bugungi kunda og‘zaki nutqni o‘stirish va rivojlantirish muammosi tobora ko‘proq ijtimoiy ahamiyat kasb etib bormoqda.

Zero, nutq inson ma’naviyatining ko‘zgusidir. Insondagi mustaqillik, ijodiylik, o‘z nuqtayi nazarini himoya qila olish, undagi boy ma’naviy olam nutqi orqaligina namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga moslab to‘g‘ri, ravon ifodalashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, talaffuz, intonatsion, imlo va punktuatsion savodxonlikka erishish ona tili va o‘quv savodxonligi o‘quv fanlarining asosiy maqsadlaridan sanaladi. Lekin metodik adabiyotlarida to‘g‘ri ta’kidlanganidek, bolalar nutqida to‘xtab-to‘xtab gapirish, gapni intonatsion jihatdan uyuhshtira olmaslik, yaxlit bir matn hosil qila bilmaslik, intonatsion monotonlik kabi kamchiliklar kuzatiladi. Didaktik olim R. Ibragimovning ta’kidlashicha, mustaqil va alohida (yakka) vazifalar uchun mashqlar tanlashga qat’iy bir qolipga tushib qolgan yondashuvni ham ta’lim amaliyotidagi jiddiy xato hisoblanadi. “Mustaqil ish – o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi vositadir. Chunki u o‘quvchilarda ta’lim jarayonida mustahkam va ongli bilim olish, mahorat va malakaning shakllanishi, o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish, o‘zga sharoitlarda egallangan malakani qo‘llash, bilim orttirish qobiliyatları (kuzatuvchanlik, harakatchanlik, mantiqiy fikrlash, ijodiy faollilik va hokazo)ni rivojlantirish, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatiga ko‘nikish, kelgusida mustaqil bilim olish bilan samarali shug‘ullanishni

taqozo qiladi”⁴. Ma’lum bo‘ladiki, qo‘sishimcha vaqt talab etmasdan grammatik materialni o‘zlashtirish munosabati bilan nutqiy xatolarni bartaraf etish o‘quvchilar nutq madaniyatini oshiribgina qolmay, ularga grammatik materialni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘rganilayotgan grammatik birliklarning nutqdagi, odamlar orasidagi jonli muloqotdagi rolini anglashga olib keladi.

Metodist I.Rahimovaning ta’kidlashicha, “Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limi – o‘qish darslarida badiiy asarlar ustida ishslash o‘rta va yuqori sinflarga nisbatan farq qiladi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarga kitobxonlik madaniyati asoslari o‘rgatiladi. Ularda to‘g‘ri, ifodali va tushunib o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu bosqich adabiy ta’limi o‘quvchilarda estetik didni, boy va ta’sirchan hissiyotni, nozik tuyg‘ularni qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Bu davrdagi adabiy ta’lim o‘quvchilarda hissiy ta’sirchanlik, tasavvur va sezimlar boyligi, ijodiy fantaziya, nutq ravonligi, o‘qish texnikasi, kitobxonlik odati singari sifatlar shakllanishiga ham yo‘naltiriladi”⁵.

O‘rganilgan bir yoki bir necha badiiy asarlar (ular bir muallifning asarlari bo‘lishi ham mumkin) o‘zaro muloqotlar uchun tabiiy va qulay sharoitni yuzaga keltiradi. Bundan foydalanim o‘quvchilar nutqida tegishli so‘zlar, frazeologik ifodalar, obrazlar mohiyatiga aloqador bo‘lgan tushuncha va so‘zlarni faollashtirish imkonini tug‘iladi. Bunda dastlab, o‘qituvchi dars oldiga qo‘yilgan maqsadni bayon etadi. Keyingi bosqich ifodali o‘qishdan iborat. Ifodali o‘qishga musobaqa tusini berish mumkin. Sinfda eng yaxshi ifodali o‘quvchilar tanlovi tashkil etiladi. Ifodali o‘qish, albatta, muhokama qilinishi kerak. Buni har bir yoki bir necha o‘quvchilarning ifodali o‘qishlaridan keyin uyuştirish mumkin. Muhokamaga imkonni boricha barcha o‘quvchilarni jalg etish lozim. Tengdoshlarning yutuq va kamchiliklariga shaxsiy munosabat bildirish asosida ularning og‘zaki tarzda so‘zlashlari uchun imkon tug‘iladi.

Darsga odatda rasmlar, illyustratsiyalar, jadvallar ham olib kiriladi. Ular ustida ham muhokama va munozaralar tashkil etiladi. Ayniqsa, ijodkor shaxsiyatining rasmdagi ifodasi ustida qizg‘in bahslar yuzaga keladi. Albatta, ifodali o‘qish darslarining yakuni o‘qituvchining zimmasida qoladi: u har bir o‘quvchining yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatadi, o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni yo‘l-yo‘lakay ham, alohida holda ham ko‘rsatib, uning sababini izohlab, natijasini tushuntirib beradi.

⁴ Ибрагимов Р. Башлангич синф ўкувчиларининг билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 21-б.

⁵ Раҳимова И.Р. Башлангич синфлар ўқиш дарсларида муаммоли таълимдан фойдаланишнинг назарий-амалий хусусиятлари. Пед. фан. фалс. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 14-б.

Nasriy asarlar ustida ishlanganda ham mana shu izchillikka rioxaladi. Faqat unda epik asar tabiatidan kelib chiqadigan o‘ziga xosliklarga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda nasriy asar yoki uning tanlab olingan fragmentini qayta hikoyalash qo’shilishi mumkin. Qayta hikoyalashda qator o‘ziga xos talablar qo‘yiladi. Bular: voqealar bayonidagi izchillik, ularning o‘zaro bog‘lanishi, ifodaning aniqligi, ta’sirchanlik, asar matnida mavjud bo‘lgan so‘z va ifodalardan, tavsif, qahramonlar tasviri, unda qo‘llangan tasvir vositalari, so‘z o‘yinlaridan foydalana olish malakasi hisobga olinadi.

Ish tajribalarida muallif bilan suhbat, muallif yoki adabiy qahramonga maktublar, qahramon bilan yuzma-yuz suhbat kabi shakllar ham mavjud. Adabiy mavzularga oid mulohazalarni turli ko‘rinish va janrlarda ifodalashga o‘rgatishning shakl va usullari bular bilan chegaralanmaydi. O‘quvchilarni nutqiy hamda estetik jihatdan rivojlantirish o‘qituvchining ijodkorligiga, topqirligiga, har bir vaziyatdan foydalana olish mahoratiga bog‘liq.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishda boshlang‘icha sinflarda o‘tkaziladigan yozma ishlar asosiy rol o‘ynaydi va u turli shakllarda o‘tkaziladi. I–IV sinflardagi bayon va insho ta’limiy xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi rahbarligida o‘tkaziladi. Bu sinflarda o‘quvchilar mazmuni o‘zlashtirilgan ertak, hikoyalar bo‘yicha bayon, hayotiy tajribalari va rasmlar asosida kichik hajmda insho yozadilar.

Xulosa qilganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish o‘qituvchidan ancha izlanishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. И ҳарфи. – 221-б. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Nasrullayev E., Hazratqulov M. Insho – o‘quvchi shaxsini shakllantirishning muhim vositasi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2020. – № 9. – B. 15-b.
3. Зуннунов А., Турдиев Б. Баёнлар тўплами. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 8-б.
4. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Ташкент, 2005. – 21-б.
5. Раҳимова И.Р. Бошланғич синфлар ўқиш дарсларида муаммоли таълимдан фойдаланишнинг назарий-амалий хусусиятлари. Пед. фан. фалс. (PhD) ... дисс. – Ташкент, 2020. – 14-б.